

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН
АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон
қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт,
филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик
диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия
этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2023-4/2

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2023

Бош мұхаррір:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.

Бош мұхаррір ўринбосари:

Ҳасанов Шодлик Бекпұлатович, к.ф.н., к.и.х.

Таҳрир ҳайати:

*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.
Абдуллаева Муборак Махмусовна, б.ф.д., проф.
Абдухалимов Баҳром Абдурахимович,
т.ф.д., проф.
Агзамова Гүлчехра Азизовна, т.ф.д., проф.
Аймбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.
Аметов Якуб Идрисович, д.б.н., проф.
Бабаджанов Хүшнүт, ф.ф.н., проф.
Бекchanов Дағрон Жуманазарович, к.ф.д.
Буриев Ҳасан Чұтбаевич, б.ф.д., проф.
Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.
Давлетов Санжар Ражсабович, тар.ф.д.
Дурдиев Гаөхар Салаевна, арх.ф.д.
Ибрағимов Баҳтиёр Тұлғанович, к.ф.д., акад.
Исмаилов Исхақжон Отабаевич, ф.ф.н., доц.
Жуманиәзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.
Жуманов Мурат Аренбаевич, д.б.н., проф.
Кадирова Шахноза Абдухалирова, к.ф.д., проф.
Каримов Улугбек Темирбаевич, DSc
Курбанова Саида Бекchanовна, ф.ф.н., доц.
Қутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.
Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.
Майл С. Энжел, б.ф.д., проф.
Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.
Мирзаев Сирожиддин Зайнинович, ф-м.ф.д., проф.
Мирзаева Гулнара Сайдарифовна, б.ф.д.*

*Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.
Раззақова Сурайё Раззоқовна, к.ф.ф.д., доц.
Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.
Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д.,
проф.
Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.
Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.
Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.
Сапарбаева Гуландам Машариповна, ф.ф.ф.д.
Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.
Сафаров Алишер Каримджанович, б.ф.д., доц.
Сирожсов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.
Сотипов Гойинназар, қ/х.ф.д., проф.
Тоғибаев Комилжон Шаробитдинович,
б.ф.д., академик
Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.
Холматов Баҳтиёр Рустамович, б.ф.д.
Чупонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.
Шакарбоев Эркин Бердиқулович, б.ф.д., проф.
Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.
Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.
Ўразбоев Гайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.
Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.
Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.
Ҳасанов Шодлик Бекпұлатович, к.ф.н., к.и.х.
Худайберганова Дурдана Сидиқовна, ф.ф.д.*

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№4/2 (100), Хоразм
Маъмун академияси, 2023 й. – 225 б. – Босма нашрнинг электрон варианти -
<http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм
Маъмун академияси

МУНДАРИЖА
ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Abduraximova S.A., Alimova S.G. O'zbekistonda majburiy tibbiy sug'urtani joriy qilinishining muammo va yechimlari	5
Alimxanova N.A. Tovar- moddiy zaxiralar hisobini yuritish qoidalarini hisob siyosatida aks ettirish	8
Arzimatov B.Z. Turizm sohasiga jalb etilgan investitsiyalarning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini baholash	10
Asrorov A.I. Innovative ways to increase competitiveness of the tourism sector in the country	13
Avezov H.I. Yevropa ittifoqi bozorlariga yong'oq eksporti standarti tahlili	16
Barnayev Z.Sh. Buxoro viloyatida hududiy innovatsion tizim strategiyasini boshqarish mexanizmini ishlab chiqish	22
Egamberdiyeva S.R. Xalqaro standartlar asosida aktivlar hisobini takomillashtirish	24
Ismatov R.O., Saydullayev U.N. Hududlarning iqtisodiy rivojlanishida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning ahamiyati	27
Kholikova R.S., Azimov T.N. The economic significance of industrial clusters for prosperity acceleration of states	30
Mirzayev A.T. O'zbekistonda turistik-rekreatsiya faoliyatini rivojlantirishda boshqaruva qarorlari qabul qilish uslubiyotini takomillashtirish	34
Qurbanova R.J., Eshquvvatova N.A., Khakimov D.U. Iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish korxonalarini rivojlantirishda mehmonxonalarining o'rni	40
Qurbanova R.J., Eshquvvatova N.A., Khakimov D.U. Ways to improve service quality of service enterprises	42
Radjabova M.A. Features of commercial banks in ensuring the economic growth of the country	45
Tadjiev B.U., Sabirova O.SH. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish imkoniyatlari va xalqaro reytingdagi o'rni	48
Xakimov N.N. Davlat moliyaviy nazoratini tashkil etishning nazariy-uslubiy asoslari ahamiyati va uni amalga oshirish mexanizmlari	52
Xakimov N.N. O'zbekiston moliya tizimida davlat moliyaviy nazorat mexanizmlarini takomillashtirish masalalari	55
Xakimov N.N. Davlat budgeti ijrosining dastlabki va joriy nazoratini takomillashtirish	58
Xalekeeva Z.P. Davlat moliyaviy nazorat organlarining byudjet mexanizmi	60
Xolmirzayev U.A. Moliyaviy hisobotlarda pul va unga tyenglashtirilgan mablag'lari haqidagi axborotni xalqaro standartlar asosida aks ettirish	63
Xomidov Q.Q. Turistik majmular faoliyati samaradorligini boshqarish strategiyalarini takomillashtirish	68
Yulchiyev A.O. O'zbekistonda turistik xizmatlarni sifatini oshirishda turoperator va turagentlar faoliyatini tahlili	73
Азимова Ҳ.Э. Қашқадарё вилоятида хорижий инвестицияларни жалб этишнинг аҳамияти	76
Айтмуратова У.Ж., Сарсенбаев Б.А., Утамбетов Р.А., Жумамуратова Х.О. Тижорат банклари томонидан жисмоний шахсларни кредитлаш йўллари	78
Артиков З.С. Савдо хизмати ва ахолининг хаёт даражаси ва сифати ўртасидаги диалектик боғлиқликнинг назарий масалалари	82
Асланова Д.Х., Хашимова М.М., Шаймурданов Ш.Ш. Тоғли худудларда экотуристик худуд потенциалини ва жозибадорлик коэффицентини аниqlashi	84
Бабаджанов Ж.Ф. Роль малого бизнеса и частного предпринимательства в сокращении бедности в регионе	91
Байбобоева Ф.Н. Иқтисодий хавфсизликни таъминлаш механизmlari	97
Бобаев И.А. Кичик бизнес ва xусусий тадбиркорликни рағбатлантириш	100
Бойкузиева Г.А. Вопросы управления предприятиями пищевой промышленности	104
Ботирова Р.А., Сирожиддинов И.Қ. Реал инвестицион жараёнлар миллий иқтисодиётнинг тараққиётининг асоси сифатida	106

UO'K 330

**O'ZBEKISTONDA MAJBURIY TIBBIY SUG'URTANI JORIY QILINISHINING
MUAMMO VA YECHIMLARI**

S.A.Abduraximova, DSc, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent

S.G.Alimova, dots., Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent

Annotatsiya. Quyidagi maqolada O'zbekiston sharoitida yaqin yillar ichida yo'lga ko'yigan tizim, majburiy tibbiy sug'urtani joriy etilishi, uning rivojlanishidagi to'siqlar, muammolarni yechimlari va albatta erishiladigan natijalar ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ixtiyoriy sug'urta, majburiy tibbiy sug'urta, tibbiy xizmat, tibbiyot muassasasi, sug'urta kompaniya, soliq siyosati.

Аннотация. В данной статье описывается система, внедрения в ближайшие годы обязательного медицинского страхования в Узбекистане, препятствия в его развитии, решения проблем и, конечно же, достигнутые результаты.

Ключевые слова: добровольное страхование, обязательное медицинское страхование, медицинское обслуживание, медицинское учреждение, страховая компания, налоговая политика.

Abstract. This article describes the system of introduction of compulsory medical insurance in Uzbekistan in the coming years, obstacles in its development, solutions to problems and, of course, the results achieved.

Keywords: voluntary insurance, compulsory medical insurance, medical care, medical institution, insurance company, tax policy.

Majburiy tibbiy sug'urtaning maqsadi nima? Shunday savol barcha aholi vakillari tomonidan berilishi o'rini. Sababi bu xizmat turi xali barcha ijtimoiy guruhni tashkil etuvchi aholi o'rtaida yetarlicha talqin etilmagan. Demak, soha vakillarini hozirgi vaqtida tibbiy sug'urtani joriy etilishi haqida, uning avzalliklari haqida ma'lumot berishlari o'rini deb o'ylaymiz. Tibbiy sug'urta sohasida dunyo amaliyotida asosan ikki turdag'i tibbiy sug'urta: ixtiyoriy va majburiy tibbiy sug'urta amal qiladi. So'nggi yillarda tibbiy xizmat narxlari qimmatlashib ketayotganligi hech kimga sir emas. Bunday holatda aholining zaif qatlamlarida yuqori malakali tibbiy xizmatlardan foydalanish uchun moddiy imkoniyat bo'lmay qolishi mumkin. Misol uchun, telegram kanallarida yoki boshqa ijtimoiy tarmoqlarda turli kasallikdan aziyat chekib, ammo davolanish uchun mablag' topaolmagan va shu sababli plastik karta nomeriga pul yeg'ib berishga yordam so'ranganlarni ko'rishimiz mumkin. Bu albatta, ayanchli ahvol, ammo shunday xolatlarini moliyaviy jihatdan oldini olish mumkinligi muammoni yechimi deb qabul qilishimiz mumkin deb o'ylaymiz.

Majburiy tibbiy sug'urtaning asosiy maqsadlaridan biri ham aynan mana shu muammoni bartaraf etgan holda, tibbiy xizmatlardan foydalanishda barchaga bir xil imkoniyat yaratib berishdir. Majburiy tibbiy sug'urta joriy etilishi tibbiy xizmat sifatini oshishiga olib kelib, o'z navbatida fuqarolarning malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqini to'laqonli amalga oshirish imkonini beradi. Sodda qilib aytganda, fuqaro sog'lig'i yomonlashib qolgan hollarda tibbiy xizmatlar uchun birdaniga katta miqdordagi mablag'ni to'lay olmaslik xavfini oldini olish uchun majburiy tibbiy sug'urtadan foydalaniladi.[1]

Avvalam bor shuni ta'kidlab o'tmoqchimiz, tadqiqotlarni olib borish jarayonida, o'tkazilgan anonim so'rovnomalar natijalari tibbiy sug'urta haqidagi tushunchalarni, uni afzalliklari haqida xali hanus to'liq ma'lumot shakllanmaganligini ko'rishimiz mumkin edi, aholida moliyaviy tadbirkorlarga ishonchszilik borligini ko'rishimiz mumkin (asos - <https://docs.google.com/spreadsheets/d/18wotFWpz0VUV7f9shqTZhcJM3cYvwXD3OLVVCgzLSGw/edit>. 2022 yil sentabr-dekabr oylari). Buni bartaraf etish esa albatta soha vakillarini o'z faoliyatini xalol olib borishlari va eng muhimmi aholining ongli ravishda bu o'zgarishni qabul qilishida. Misol uchun, so'rovnoma dagi savollardan biri: majburiy tibbiy sug'urtani amaliyotga kiritish mumkinmi?

– javoblar: ha – 22,7%, yo‘q chunki – 22,7 %, yuq, negaki, xammani majburlab sug‘urtalashni imkonli yo‘q – 54,5%. Bu natijani biz anonim so‘rovnoma da 100 ta respondentlardan oлган edik ularni orasida pedagoglar, shifokorlar, uy bekalari va talabalar ishtirok etgan.

Albatta so‘rovnoma da majburiy tibbiy sug‘urta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlab o‘tilgan. Avvalam bor tibbiy xizmatlardan foydalanish jarayonida bu namoyon bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin. Majburiy tibbiy sug‘urta joriy etilishi tibbiy xizmatlar narxining arzonlashishiga olib kelib, fuqarolarga bir xil narxda xohlagan tibbiyot muassasasida sifatli tibbiy xizmat olish imkonini beradi. Eng assosiysi, fuqarolarning tibbiy xizmat uchun «o‘z cho‘ntagidan» (out of pocket paymens) to‘laydigan pul miqdori kamayadi. O‘z navbatida, majburiy tibbiy sug‘urtada ishtirok etayotgan fuqarolar sog‘lom payti ham to‘lovlari (sug‘urta mukofoti) to‘lashlari mumkin bo‘ladi.

Majburiy tibbiy sug‘urta joriy etishning qanday talablari bor? Degan savolga quyidagicha javob berish mumkin, ya’ni quyidagi vazifalar bajarilishi lozim: Sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirish majburiy tibbiy sug‘urtaga moslashtirilishi, ya’ni davlat tomonidan maxsus sug‘urta kompaniyasi (fond)ni tashkil etish; Tibbiy sug‘urta kompaniyalari (fondlari) va davolash-profilaktika tashkilotlari o‘rtasida munosabatlarni aniq huquqiy tartibga solish; Majburiy tibbiy sug‘urta tomonidan qoplanadigan tibbiy xizmatlar ro‘yxatini shakllantirish; Shifokorlar fuqarolarni davolashda o‘rnatilgan klinik protokollar va standartlarga bir hilda amal qilish; Majburiy tibbiy sug‘urta joriy etiladigan aholi qatlamlari va ular to‘laydigan pul miqdorini aniq o‘rnatishi, shu jumladan imtiyozli aholi qatlamlarini belgilash; Tibbiyot muassasalari va tibbiy sug‘urta bozori boshqa ishtirokchilarining elektron hujjat almashinuvini joriy etish; Fuqarolarga majburiy tibbiy sug‘urtaning afzalliklari bo‘yicha to‘g‘ri tushuntirish ishlari olib borish.

Keyingi o‘rinli savol hukumat bundan qanchalik manfaatdor? Majburiy tibbiy sug‘urtani joriy etilishi tibbiy xizmatlar ko‘rsatilishi arzonlashuviga olib kelishi sababli davlat budgetidan xarajatlar kamayadi, mazkur sohada yagona tizim yaratilishi oqibatida byurokratizm kamayib, davlat boshqaruvi osonlashadi. Bolalarning sog‘lig‘iga e’tibor oshishi natijasida ular sog‘lom bo‘lib o‘sishi ta’milanadi va kelajakda kelib chiqishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy xarajatlar oldi olinadi. Hukumat fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlash maqsadida inson sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi sohalarni tartibga solishni kuchaytiradi, (masalan tamaki va alkogol mahsulotlari), natijada mazkur mahsulotlar narxi oshadi.

Xalqaro tajribaga asoslanib so‘z yuritadigan bo‘lsak rivojlangan 33ta davlatdan 32tasida umumiyligi majburiy tibbiy sug‘urta tizimi joriy qilingan bo‘lib, ular taklif etilgan 3 turdagisi majburiy tibbiy sug‘urtadan birini qo‘llashadi: 1. Yagona to‘lov tizimi – davlat sog‘liqni saqlash tizim uchun fuqarolardan alohida soliq turi undiradi. 32ta davlatdan 12tasida bu tizim joriy etilgan (xususan Buyuk Britaniyada). 2. 6ta davlatda esa majburiy sug‘urta polisi (insurance mandate) sotib olinadi. Mazkur tizim barcha fuqarolardan ish beruvchi orqali yoki davlatdan majburiy tibbiy sug‘urta sotib olishni nazarda tutadi bu 4ta ijtimoiy sug‘urta turidan biri (Germaniyada kuzatiladi). 3. Qolgan 9ta davlatda ikki pog‘onali tizim (davlat budgeti va xususiy sug‘urta kompaniyalari) joriy etilgan bo‘lib, bu tizimda davlat eng asosiy tibbiy xizmatlar uchun fuqarolardan soliq undiradi va bu tibbiy xizmatlarni bepul ta‘minlab beradi. Fuqarolar qo‘shimcha tibbiy xizmatlar uchun o‘zlarini mustaqil to‘lovlarni amalga oshirishlari mumkin (Fransiya misoldida). [2].

Xalqaro tajribadan shuni ta’kidlash mumkinki - Buyuk Britaniyada majburiy tibbiy sug‘urta tizimi mavjud emas, ammo umumiyligi soliq tushumlari tufayli tizim mavjud (yuqorida ta’kidlaganimizdek umumiyligi soliq tushumlari hisobiga tizim faoliyat yuritadi). Ushbu tizim ko‘plab sog‘liqni saqlash xizmatlarini taklif etadi, ularning aksariyati Buyuk Britaniya aholisi uchun bepul. Bundan tashqari, hatto favqulodda vaziyatda mamlakat mehmonlari ham Angliyaga tashrif buyurganlarida bepul tibbiy yordam olishlari mumkin. Germaniyada esa umuman tibbiy sug‘urtasiz istiqomat qilish mumkin emas, agar bu turdagisi sug‘urta polisi mavjud bo‘lmasa jarima to‘lashga majbur bo‘ladi. Majburiy tibbiy sug‘urta har bir aholining daromadning hajmiga bog‘liq xolda belgilanadi, sababi Germaniyaning tibbiy sug‘urta kassalari ikki hil ko‘rinishda bo‘ladi: birinchisi, davlat tasarrufida, va ikkinchisi xususiy. Birinchi turdagisi sug‘urta polisini ealari yiliga 65 ming yevrogacha daromad ko‘rvuchi shaxslar, agar bu daromaddan yuqori bo‘lsa hususiy sug‘urta polisiga

egalik qilishi mumkin. Allbatta, talabalar va o‘z-o‘zini band qilgan qatlamlar ham hisobga olingan va *Minijob* polisidan foydalanishlari mumkin.

Fransiyada majburiy tibbiy sug‘urta davlat tassarufida, asosan sug‘urta to‘lovchilari bu ish beruvchilar, agar baxtsiz xodisa ish vaqtida sodir bo‘lsa tibbiy xarajatlar sug‘urta kompaniyasi tomonidan 100% to‘liq qoplab beriladi, 75% tibbiy xarajatlarni turlarini qoplab berilishi bu kasb kasalligi, xomiladorlik va tug‘ruq, nogironlik kabilarda to‘lab beriladi. Qolgan 25% tibbiy xizmatlar uchun mablag‘ni bemor o‘zi to‘lab beradi. Ijtimoiy ta’minotga muhtoj qatlamlar ham inobatga olingan va ular uchun ayrim xollarda tibbiy xarajatlarni sug‘urta polisi orqali to‘liq qoplab berish ko‘zda tutilgan.

Keltirilgan birinchi misoldan shuni ta’kidlash lozimki demak davlat tizimidagi tarkibiy tuzilma asosida soliq siyosatini olib borish muhim va dolzarb ekanligini ko‘rish mumkin. Mamlakatni soliq siyosati o‘ziga hos regulator vazifasini, ya’ni bir soha yoki tarmoqni sog‘liqni saqlash tizimi bilan bog‘lashda adolatli, kafolatlangan va zamonaga mos qoidalarni taklif etishi va hayotga joriy qilishi zarur. Ikkinchi masalasa o‘rtadagi bog‘lovchi sug‘urta tashkilotlarini sog‘liqni saqlash tizimi bilan chambarchas bog‘liqligi va qonunlarga amal qilgan holda faoliyatni to‘laqonli olib borilishini ta’minlash, nafaqat sug‘urta kompaniyasini yuqori foyda ko‘rish maqsadida “mijoz” yig‘ish, emas balki tibbiy xizmat qay daraja ko‘rsatilayotganini mahsus vakillar, xattoki, mutahassislar bilan birgalikda nazorat olib borishni yo‘lga qo‘yish zarurati bor deb o‘ylaymiz.

Sug‘urta bozoridagi holatni o‘zgartirish zarurati bu zamon talabi. Ayni vaqtida respublikada tibbiy sug‘urtaning ixtiyoriy turi mavjud. Bu sug‘urta turi asosan yuridik shaxslar tarafidan ixtiyoriy tarzda xarid qilib kelinmoqda. O‘zbekistonda ixtiyoriy tibbiy sug‘urtani sanoqli tashkilotlar (Lukoyl, Nestle-O‘zbekiston va boshqalar) o‘z xodimlariga ijtimoiy paket tarzida taqdim etishadi. Agar ixtiyoriy tibbiy sug‘urtadan majburiy tibbiy sug‘urta tizimiga o‘tilsa respublikadagi faoliyat ko‘rsatib kelayotgan tashkilotlar tibbiy sug‘urta polisi paketlarini sotib olishgach, sug‘urta bozorida tibbiy sug‘urta hajmi nisbatan keskin sur’atlarda oshishiga olib keladi. Shu o‘rinda so‘rovnamada aks etkan savolni natijasini ta’kidlamoqchimiz: 2021 yil 1 iyuldan 2022 yil yakunigacha bo‘lgan muddatda Sirdaryo viloyatida davlat tibbiy sug‘urtasi tizimini tajriba-sinov tariqasida qo’llanib kelinmoqda. Bu sug‘urta xalq uchun manfaatli bo‘layapti deb o‘ylaysizmi ? A.ha... - 48,6%; B.yo‘q-15,1%; C.Hozircha yo‘q-36,3%, javoblarni ko‘rishimiz mumkin.

Sug‘urta bozorida kuchli raqobat tizimi vujudga kelishini kuzatish mumkin bo‘ladi. Va albatta shu bilan birga, sug‘urta kompaniyalari o‘rtasida sug‘urta xizmatlarini takomillashtirish bo‘yicha majburiyatlar yuzaga keladi. O‘zbekistonda ham majburiy tibbiy sug‘urta joriy etish bo‘yicha 2019 yilgi Davlat dasturining 160-bandida aniq vazifalar belgilangan. Sog‘liqni saqlash vazirligi ishtirokida 2021 yildan boshlab 2025 yilgacha majburiy tibbiy sug‘urtani bosqichma-bosqich joriy qilish ko‘zda tutilgan. Sug‘urtalash 3 bosqichda amalga oshiriladi: 1. Qisqa muddatda - tayyorgarlik bosqichi (2019-2021 yillar); 2. O‘rta muddatli istiqbolda-majburiy tibbiy sug‘urtani joriy etishning dastlabki bosqichi - davlat va xususiy tashkilotlar xodimlarini sug‘urtalash (2021-2023 yillar); 3. Uzoq muddatda-majburiy tibbiy sug‘urtani kengaytirilgan joriy etish bosqichi – axolining barcha qatlamlarini sug‘urta bilan qamrab olish (2023-2025 yy.).

Qonun loyihasini tayyorlashda Janubiy Koreya va Turkiya davlatlari ijobjiy tajribasi asos qilib olindi va uni tayyorlashda mahalliy (shifokor, sug‘urtachi, moliyachi va boshqalar)va JSST ekspertlari ishtirok etdi. Ko‘rib turibmizki buning zaminida juda katta asosiy faoliyat bu moliya bilan bog‘liq bo‘lgan manbalarni aniqlash va tasdiqlash. Tibbiy sug‘urtani joriy etishdan asosiy maqsad bu nafaqat shifokorlarni ma’naviy qiyofasini, ya’ni o‘z ishini ustasi va chinakamiga bemorning sog‘lig‘iga qayg‘uradigan shaxs ekanligi, yuzaga chiqaradi, hamda sog‘liqni saqlash tizimidagi barcha tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi bo‘g‘inlarni moddiy texnik bazasi yaxshilanadi, xodimlarga yuqori maosh to‘lanadi. Bu esa ko‘zlangan maqsad sari erishishga katta qadam bo‘lib hisoblanadi. Majburiy tibbiy sug‘urtani mamlakatda jadallik bilan ishga solish uchun yuqoridagi muammo yuzaga chiqadi, ya’ni barcha tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi maskanlar birdek rivojlangan bo‘lishi zarur. Poytaxt fuqarosi bilan chekka qishloq aholisiga teng darajada tibbiy xizmat ko‘rsatilishi lozim. Aks xolda buni natijasi sezilarli darajada o‘zgarmasligi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bulsak majburiy tibbiy sug‘urtani joriy qilinishi bu eng katta muammo – korrupsiogen harakatlarni kamayatiradi. Sug‘urta polisi bilan kelgan bemorga shifokorlar har qachongidan ko‘ra sifatliroq xizmat ko‘rsatishadi, chunki u o‘zi bilan mablag‘ olib kelyapti, ya’ni sug‘urta kompaniyalari tibbiy xizmat haqini to‘lab berishadi. Bunga birdan erishish bo‘lmaydi va ma‘lum vaqt talab qiladi. Rivojlangan davlatlarda ham majburiy tibbiy sug‘urtani joriy etish uchun 20-30 yillab vaqt ketgan. O‘zbekiston sharoitida yaqin yillar ichida tizim yo‘lga qo‘yiladigan bo‘lsa, albatta,boshida kamchiliklardan holi bo‘lmaydi. Lekin muhim jihat shuki, majburiy tibbiy sug‘urta tibbiyot rivoji yo‘lida qo‘yilgan eng dadil qadam bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. <https://uzbekinvest.uz/uz/news/tibbij-sugurta-soglik--kafolati-buloladimi>
2. Ijtimoiy sug‘urta modellari: jahon tajribasi va O‘zbekiston amaliyoti, - Review.uz
3. Alimova S.G. i dr. //Puti Vnedreniya Mediçinskogo Straxovaniya V Uzbekistane// Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities. Volume 15,February , 2023. S.26-30
4. Alimova S.G. va boshqalar // Tibbiy sugurtani joriy etishning asosiy muammo va echimlari// “Yangi Uzbekiston: Innovacziya, Fan va Ta’lim”. Toshkent. Yanvar | 2023 9-kism. 10-13 b.

UO’K 330.123.3

TOVAR- MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI YURITISH QOIDALARINI HISOB SIYOSATIDA AKS ETTIRISH

N.A.Alimanova, katta o‘qituvchi, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Qarshi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tovar-moddiy zaxiralarlar bo‘yicha nazariy ma’lumotlar hamda buxgalteriya hisobi jarayonida tovar-moddiy zaxiralarlarning o‘rni haqida bayon etilgan. Shuningdek “Neftegazmineral” MCHJda tovar-moddiy zaxiralari hisobini yuritish usullarining o‘zgarish tendensiyalari va qilingan tahlili yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: 4-sonli BHMS,Tovar-moddiy zaxiralar, AVECO usuli,FIFO usuli,LIFO usuli, identifikasiyalangan tannarx usuli.

Аннотация. В данной статье описаны теоретические сведения о товарно-материальных резервах и роли товарно- материальных резервов в процессе бухгалтерского учёта. Также освещены тенденции и анализ изменения методов учёта товарно-материальных резервов в ООО “Нефтегазминерал”.

Ключевые слова: НСБУ№4, товарно-материальные резервы,метод AVECO, метод FIFO, метод LIFO, метод идентификационной себестоимости.

Abstract. This article describes the theoretical information about inventory reserves and the role of inventory reserves in the accounting process. Trends and analysis of changes in the methods of accounting for inventory reserves in Neftegazmineral LLC are also highlighted

Keywords: National Accounting Standard№4, inventories, AVECO method, FIFO method, LIFO method, identification cost method

Kirish.O‘zbekiston iqtisodiyotini transformasiyalash sharoitida xo‘jalik yurituvchi sub'ektlarda tovar-moddiy zaxiralar hisobi va auditini xalqaro standartlar asosida tashkil etish va yuritish borasida amaliy choralar ko‘rilmoxda.Xususiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta’minlash maqsadida «Aksiyadorlik jamiyatları, tijorat bankları, sug‘urta tashkilotları va yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar 2021 yil 1 yanvardan boshlab, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etishi va 2021 yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar asosida tayyorlash» vazifasi belgilangan. Mazkur vazifani amalga oshirish xo‘jalik yurituvchi sub'ektlarda tovar-moddiy zaxiralar hisobi va auditini xalqaro standartlar talablari asosida takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalarni asoslash, tovar-moddiy zaxiralarini buxgalteriya hisobida haqqoniy qiymatda baholash, auditorlik tekshiruvlarida tovar-moddiy zaxiralar bo‘yicha ichki nazorat tizimini kuchaytirish masalalari dolzarb muammolardan biridir. Tovar-moddiy zaxiralar - faoliyat yuritish jarayonida sotish maqsadida saqlab turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida bo‘lgan hamda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish jarayonida ma’muriy, ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun